

HAVO TRANSPORTIDA YO‘LOVCHI TASHISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Azimova Moxinur Nozimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tayanch doktoranti,

ORCID: 0009-0003-8039-9807

E-mail: mohinurazimova20@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada havo yo‘lovchi tashish samaradorligini baholashning nazariy-metodik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda samaradorlik aviakompaniya faoliyatining faqat moliyaviy natijasi sifatida emas, balki texnik-operatsion, iqtisodiy, moliyaviy, investitsion, innovatsion va boshqaruv komponentlarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida havo transporti samaradorligini tushuntiruvchi asosiy yondashuvlar tizimlashtirildi hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar resurslar va xarajatlar, ishlab chiqarish va quvvat, xizmat natijalari, moliyaviy natijalar va tashqi muhit bo‘yicha guruhlashtirildi. DEA, SFA, TFP/Malmquist, KPI va BSC metodik yondashuvlarning mazmuni, afzalliklari va cheklovlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: havo transporti, yo‘lovchi tashish, samaradorlik, aviakompaniya, metodik yondashuv, KPI, DEA, SFA, BSC, ASK, RPK, PLF.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы оценки эффективности пассажирских авиаперевозок. В исследовании эффективность интерпретируется не только как финансовый результат деятельности авиакомпании, но и как взаимосвязанная система технико-операционных, экономических, финансовых, инвестиционных, инновационных и управленческих компонентов. На основе анализа научной литературы систематизированы основные подходы к объяснению эффективности воздушного транспорта, а факторы, влияющие на эффективность, сгруппированы по категориям: ресурсы и затраты, производство и мощности, результаты обслуживания, финансовые результаты и внешняя среда. Также проведен сравнительный анализ содержания, преимуществ и ограничений методологических подходов, таких как DEA, SFA, TFP, KPI и BSC.

Ключевые слова: воздушный транспорт, пассажирские перевозки, эффективность, авиакомпания, методологический подход, KPI, DEA, SFA, Balanced Scorecard, ASK, RPK, PLF.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations of assessing the efficiency of air passenger transportation. In the study, efficiency is interpreted not only as a financial result of the airline’s activities, but as an interconnected system of technical-operational, economic, financial, investment, innovative and management components. Based on the analysis of scientific literature, the main approaches explaining the efficiency of air transport were systematized, and the factors affecting

efficiency were grouped into resources and costs, production and capacity, service results, financial results and the external environment. Also, the content, advantages and limitations of methodological approaches such as DEA, SFA, TFP / Malmquist, KPI and Balanced Scorecard were comparatively analyzed.

Keywords: air transport, passenger transportation, efficiency, airline, methodological approach, KPI, DEA, SFA, BSC, ASK, RPK, PLF.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda transport tizimi mamlakatlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy infratuzilmaviy omillardan biri sifatida qaraladi. Havo transporti uzoq masofalarga tezkor, ishonchli va samarali aloqalarni ta'minlashi bilan global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida muhim o'rin egallaydi. Ushbu soha nafaqat yo'lovchilar harakatchanligini oshiradi, balki turizm, savdo, investitsiya va logistika tizimlarining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli havo transporti samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Havo yo'lovchi tashish samaradorligi ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, u faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmaydi. U aviakompaniyaning mavjud resurslardan oqilona foydalanishi, tashish quvvatini real xizmat natijasiga aylantira olishi, xarajat va daromadlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi hamda raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritish darajasini ifodalaydi. Shu jihatdan samaradorlikni baholashda texnik-operatsion, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv omillarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Havo transporti sohasida raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv usullari va global raqobatning kuchayishi samaradorlikka bo'lgan talabni yanada oshirdi. Aviakompaniyalar faoliyatini baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa samaradorlikni baholashning nazariy va metodik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, havo yo'lovchi tashish samaradorligini kompleks baholash yondashuvlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Maqolada samaradorlik tushunchasining iqtisodiy mazmuni kengaytirilib, unga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda mavjud metodik yondashuvlar qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Bu esa havo transporti sohasida samaradorlikni baholashni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda havo transporti samaradorligini talqin qilishda yagona yondashuv shakllanmagan. Ayrim tadqiqotlarda asosiy urg'u resurslardan foydalanish natijadorligiga qaratilsa, boshqalarida xizmat sifati, yo'lovchi qoniqishi, marshrut tarmog'i yoki accessibility masalalari ustuvor hisoblanadi. Natijada samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan mezon va indikatorlar ham turlicha talqin qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ko'p bora transport-logistika sohasini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish iqtisodiy

o‘shning eng muhim omili ekanligini ta’kidlaganlar. Shu maqsadda 2018-yil 27-noyabrda qabul qilingan PF-5584-sonli¹ Prezident farmoni bilan “O‘zbekiston havo transporti tizimini tubdan isloh qilish” bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi [1].

Ilmiy adabiyotlarda aviatsportda yo‘lovchi tashish mazmunini izohlashda bir xil yondashuv yo‘q. Italiyalik olimlar Eboli L., Bellizzi, M. G., Mazzulla, G. o‘z tadqiqotlarida uning mazmunini yo‘lovchini bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yetkazish jarayoni sifatida qaragan bo‘lsalar, Camilleri (2018) izlanishlarida havo transportini ancha kengroq, yo‘lovchi uchun qiymat yaratuvchi xizmatlar majmuasi sifatida talqin qilgan [8, 6].

Boshqa bir yondashuvni taklif etgan Yoo, S., van Wee, B., Molin, E.lar havo transportini accessibility, ya’ni hududlar va bozorlarga yetib borish imkoniyatini ta’minlovchi tizim sifatida ko‘radilar [3].

Belov maqolasida passenger service quality aviatsport kompaniyasining asosiy biznes-jarayoni sifatida ko‘riladi va doimiy monitoring uchun passenger survey zarurligi aytiladi.

Yana bir muhim jihat raqamli texnologiyalar va “aqlli aeroport” yechimlarining kengayishidir. Badanik, B., Remenysegova, R., va Kazda, A.lar tadqiqotlarida raqamli xizmatlar yo‘lovchining qoniqishiga, xizmatdan foydalanish qulayligiga va umumiy safar tajribasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaganlar.

Demak, havo yo‘lovchi tashish samaradorligi masalasi yo‘nalishda rivojlangan. Birinchi yo‘nalishda aviakompaniya faoliyatini productivity va efficiency kategoriyalari orqali baholanadi. Ikkinchi yo‘nalish xizmat sifati, qoniqish, sodiqlik va qiymat idrokiga qaratiladi. Uchinchi yo‘nalishda havo transporti accessibility, marshrut bog‘liqligi hamda uzoq masofali harakatchanlikni ta’minlovchi tizim sifatida talqin qilinadi.

METODOLOGIYA


Mazkur tadqiqotda havo yo‘lovchi tashish samaradorligini baholashning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik bazasini transport iqtisodiyoti, aviakompaniya faoliyati samaradorligi, xizmat sifati, accessibility va performance baholashga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yo‘lovchi havo transporti samaradorligi - bu aviakompaniyaning moliyaviy, mehnat, texnik va yoqilg‘i resurslaridan oqilona foydalangan holda yo‘lovchilarga xavfsiz, sifatli, barqaror va raqobatbardosh xizmat ko‘rsatish hamda mavjud tashish sig‘imidan maksimal natija olish darajasini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya.

Mazkur tadqiqotda havo yo‘lovchi tashish samaradorligi o‘zaro bog‘liq ko‘p tarkibli tizim sifatida qaraladi. Ushbu tizimda texnik, iqtisodiy, moliyaviy, investitsion, innovatsion hamda boshqaruv samaradorligi bir-birini to‘ldiruvchi va umumiy natijani shakllantiruvchi tarkibiy qismlar hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabr PF-5584-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4082760>



1-rasm. Havo yo'lovchi tashish samaradorligini baholashning tarkibiy qismlari¹

Mazkur tadqiqotda havo yo'lovchi tashish samaradorligi tarkibiy jihatdan bir-biriga yaqin, biroq mazmunan farqlanuvchi yo'nalishlar asosida baholanadi.

Texnik-operatsion samaradorlik bo'lib, u aviakompaniyaning havo kemalari parki, mehnat, yoqilg'i va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan foydalanib tashish quvvatini yaratish va uni amaliy xizmat natijasiga aylantirish darajasini ifodalaydi.

Iqtisodiy samaradorlik tashish faoliyatida resurslardan qay darajada oqilona foydalanilganini, xarajatlar va natijalar o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi. Efficiency nazariyasida iqtisodiy samaradorlik texnik va allocative komponentlar bilan bog'liq bo'lgani sababli, resurslardan foydalanish natijadorligini ifodalovchi kengroq kategoriya sifatida talqin qilinadi [3].

Investitsion va innovatsion samaradorlik esa uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini, boshqaruv samaradorligi esa barcha jarayonlarning muvofiqlashtirilish darajasini tavsiflaydi. Havo yo'lovchi tashish samaradorligini to'liq baholash mazkur tarkibiy qismlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Moliyaviy samaradorlik bo'lib, u aviakompaniya faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini aks ettiradi. Moliyaviy samaradorlikni baholashda, odatda, rentabellik, likvidlik, to'lovga qobiliyatlilik, qarz yuklamasi va kapitaldan foydalanish ko'rsatkichlaridan foydalaniladi [8].

Aviakompaniyaning investitsiya faoliyati kelgusida daromad olish maqsadida moliyaviy resurslarni turli yo'nalishlarga yo'naltirish bilan bog'liq chora-tadbirlar


¹Larysa M. Dokiienko, "Components and Performance Indicators of Air Passenger Transport," Economics: Time Realities, no. 2(78) (2025): 38-50, DOI: 10.15276/ETR.02.2025.4.

majmuasini anglatadi. Bunday investitsiyalar, odatda, samolyotlar parkini yangilash va kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, angarlar, ta'mirlash bazalari va xodimlarni tayyorlash markazlarini qurish yoki modernizatsiya qilish, zamonaviy parvozlarni boshqarish, axborot texnologiyalarini qo'llash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Innovatsion samaradorlik yangi g'oyalarni, jumladan yangi mahsulotlar, jarayonlar, biznes modellari yoki marketing yondashuvlarini yaratish va amaliyotga joriy etishni, belgilangan maqsadlarga erishishni hamda qo'shimcha qiymat shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Havo yo'lovchi tashish samaradorligining muhim tarkibiy qismlaridan biri boshqaruv tizimi samaradorligi hisoblanadi. U tashkiliy va ijtimoiy samaradorlik elementlarini murakkab o'zaro bog'liqlikda mujassam etadi.

Havo yo'lovchi tashish samaradorligini baholashda turli metodik yondashuvlardan foydalaniladi. Ilmiy adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan yondashuvlar qatoriga DEA, SFA, TFP, KPI va Balanced Scorecard kiradi.



2-rasm. Havo yo'lovchi tashish samaradorligini tahlil qilishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar¹.

DEA (Data Envelopment Analysis) - bir nechta kirish va chiqish ko'rsatkichlari asosida qaror qabul qiluvchi birliklarning nisbiy samaradorligini baholaydi. Ammo DEA tasodifiy tashqi omillarni ajratmaydi va natija tanlangan ko'rsatkichlarga juda sezgir. Ushbu metodni qo'llashda bir nechta aviakompaniyalarning park hajmi, xodimlar soni, xarajatlar, ASK, RPK, daromad kabi ma'lumotlardan foydalaniladi[12].

SFA (Stochastic Frontier Analysis) - samaradorlikni statistik chegara modeli asosida baholaydi, bunda tasodifiy xatolik va samarasizlik alohida ajratiladi. Bu usul tasodifiy omillar ta'sirini hisobga oladi. U murakkab statistik model talab etadi. SFA metodini qo'llashda xarajat, ishlab chiqarish, yo'lovchi aylanmasi, park, ishchi kuchi va boshqa omillardan foydalaniladi.

TFP / Malmquist productivity index - umumiy omillar mahsuldorligi va vaqt davomida samaradorlik o'zgarishini baholaydi. TFP yondashuvi ko'p yillik ma'lumot tayanadi va ko'rsatkichlarni to'g'ri standartlashtirishga to'g'ri keladi. Kamida bir

¹ muallif ishlanmasi, ilmiy adabiyotlar asosida tuzildi.

necha yil bo'yicha ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi [11]. Bu yondashuv samaradorlikning vaqt bo'yicha o'zgarishini tahlil qilish imkonini beradi.

KPI (Key Performance Indicators) - faoliyatni muhim operatsion va moliyaviy ko'rsatkichlari asosida baholash usulidir. KPI amaliy boshqaruv uchun qulay hamda uni ochiq ma'lumotlar bilan ham hisoblash mumkin va natijalarni tushuntirish oson. ASK, RPK, PLF, daromad, xarajat, foyda, yoqilg'i ulushi, load factor va boshqa ko'rsatkichlar tahlilga tortiladi.

Balanced Scorecard (BSC) - bu yondashuv strategik boshqaruv bilan uzviy bog'liq bo'lib, moliyaviy va nomoliyaviy indikatorlarni birlashtiradi va uzoq muddatli baholash imkonini beradi. BSC yondashuvining kamchiliklari shuki, unda subyektiv tanlov kuchli bo'ladi, ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish esa murakkab jarayon.

1-jadval.

Havo transporti samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va baholash ko'rsatkichlar¹

Komponent	Asosiy omillar	Baholash ko'rsatkichlari	Mazmuni
Resurslar va xarajatlar	xodimlar, yoqilg'i, texnik xizmat, boshqa operatsion xarajatlar	fuel cost, labor cost, maintenance cost, operating expenses	Resurslar qanchalik oqilona sarflansa, keyingi bosqichlarda samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi
Ishlab chiqarish va quvvat	park hajmi, seat capacity, aircraft age, stage length, fleet size	ASK, ATK, fleet size, average seat capacity	Aviakompaniya talabni qondirish uchun qanday quvvat yaratishini ko'rsatadi
Xizmat natijalari	yo'lovchi oqimi, yuklama darajasi, punktuallik, xizmat sifati	RPK, RTK, PLF/load factor, on-time performance	Yaratilgan quvvatning real xizmatga aylanish darajasini ifodalaydi
Moliyaviy natijalar	tushum, foyda, daromadlilik, marja	operating revenue, operating income, profitability	Operatsion natijalarning iqtisodiy samarasini ko'rsatadi
Tashqi muhit	raqobat, yoqilg'i narxi, reguliyativ talablar, ekologik standartlar, tashqi shoklar	market pressure, fuel price volatility, environmental constraints	Barcha bosqichlarga bir vaqtda ta'sir etuvchi tashqi determinantlar

DEA va SFA usullari aviakompaniyalar samaradorligini chuqurroq va nisbiy tarzda baholash imkonini beradi, biroq ularni qo'llash uchun keng va taqqoslanadigan statistik baza talab etiladi. TFP yondashuvi esa samaradorlikning vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlashda muhim. KPI yondashuvi amaliy boshqaruv uchun eng qulay metodlardan biri hamda ochiq ma'lumotlar asosida ham samaradorlik holatini baholash imkonini yaratadi. BSC esa samaradorlikni kompleks kuzatish vositasi sifatida ahamiyatlidir.

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, havo yo'lovchi tashish samaradorligi resurslar va xarajatlar darajasida shakllanadi, keyinchalik esa ishlab chiqarish quvvati, xizmat ko'rsatish natijalari va moliyaviy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bunda resurslardan oqilona foydalanish park imkoniyatlari va tashish sig'imini belgilasa, ushbu sig'imning real yo'lovchi oqimiga aylanishi aviakompaniyaning operatsion natijasini ifodalaydi. Yakuniy bosqichda esa mazkur jarayonning iqtisodiy samarasi daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarida aks etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Havo yo'lovchi tashish samaradorligi ko'p komponentli iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni faqat alohida moliyaviy yoki operatsion ko'rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Samaradorlik aviakompaniyaning resurslardan foydalanish darajasi, tashish quvvatini real xizmat natijasiga aylantirish imkoniyati, xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi muvozanat hamda bozor sharoitida raqobatbardosh faoliyat yuritish darajasini o'zida mujassam etadi. Shu bois uni texnik-operatsion, iqtisodiy, moliyaviy, investitsion, innovatsion va boshqaruv jihatlarining o'zaro bog'liqligi asosida kompleks tarzda baholash maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, havo transporti samaradorligi resurslardan foydalanish bosqichidan boshlanib, ishlab chiqarish quvvati, xizmat ko'rsatish natijalari va yakuniy moliyaviy ko'rsatkichlar orqali shakllanadi. Ushbu jarayonda tashqi muhit omillari - raqobat, yoqilg'i narxlari, tartibga solish siyosati va global iqtisodiy o'zgarishlar ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, DEA, SFA, TFP/Malmquist, KPI va Balanced Scorecard kabi metodik yondashuvlar turli jihatlarni yoritishga xizmat qilishi bilan birga, ularning har biri ma'lum cheklovlarga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa baholashda yagona metoddan foydalanish emas, balki ularni kombinatsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, aviakompaniyalar faoliyatini baholashda ko'p mezonli va integratsiyalashgan metodik yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu samaradorlikni turli darajalarda - operatsion, iqtisodiy va strategik jihatdan to'liqroq aks ettirish imkonini beradi. Ikkinchidan, ochiq va taqqoslanadigan statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish muhim bo'lib, bu DEA va SFA kabi chuqur tahlil usullarini amaliyotda keng qo'llash imkonini kengaytiradi.

Uchinchidan, aviakompaniyalar boshqaruvida KPI tizimini takomillashtirish va uni strategik maqsadlar bilan uzviy bog'lash lozim. Bu operatsion samaradorlikni oshirish bilan birga uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yo'lovchi oqimini boshqarish, xizmat sifatini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsion va innovatsion faoliyatni faollashtirish, xususan, havo kemalari parkini modernizatsiya qilish, "aqli aeroport" tizimlarini joriy etish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Havo yoʻlovchi tashish samaradorligini kompleks baholash va uni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish aviatsiya sohasining barqaror rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi hamda ushbu yoʻnalishdagi kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim metodik asos boʻlib xizmat qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-noyabr PF-5584-son “Oʻzbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4082760>
2. Abdul Rashid A., See K. F., Yu M.-M. Measuring airline efficiency using a dynamic network data envelopment analysis in the presence of innovation capital // Technological Forecasting and Social Change. - 2024. - Vol. 206.
3. Aparicio J., Zofio J. L., Pastor J. T. Decomposing economic efficiency into technical and allocative components: an essential property // Journal of Optimization Theory and Applications. - 2023. - Vol. 197. - P. 98-129. - DOI: 10.1007/s10957-023-02188-2.
4. Badanik B., Remenysegova R., Kazda A. Sentimental approach to airline service quality evaluation // Aerospace. - 2023. - Vol. 10, No. 10. - Art. 883. - DOI: 10.3390/aerospace10100883.
5. Белов Андрей Павлович, & Хартанович Елена Александровна (2023). Качество обслуживания пассажиров как показатель основного бизнес-процесса авиатранспортной компании, 115-122. doi: 10.47576/2949-1908_2023_S1_115
6. Camilleri M. A. Travel Marketing, Tourism Economics and the Airline Product. - Cham : Springer, 2018.
7. Dokiienko L. M. Components and Performance Indicators of Air Passenger Transport // Economics: Time Realities. - 2025. - No. 2(78). - P. 38-50. - DOI: 10.15276/ETR.02.2025.4.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**